


DORIVOR LIMONO'T - MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINI YETISHTIRISH BIOTEXNOLOGIYASI



Mamatkulova Iroda Ergashevna

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali

Biotexnologiya yo'nalishi katta o'qituvchi

Mamadiyorova Sevinch Jasur qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali

Biotexnologiya yo'nalishi II-bosqich talabasi

E.mail: mamadiyorovsevinch@gmail.com

Annotatsiya: Dorivor limono't – *Melissa Officinalis* nevroz, bronxial astma, ayollarni toksikoz, klimaks, yurak urishini buzilishi kabi kasalliklarni davolaydi. Shunga asoslanib dorivor limono't o'simligini yetishtirib shu cassalliklarni tabiiy holda davolash choralarini qo'llashdir.

Kalit so'zlar. Lamiaceae, *Melissa Officinalis* L, karotin, fenilkarbon kislotalar, triterpenlar, flavonoidlar, geraniol, linalool, nerol, farnezol.

Kirish. Ko'p yillik limono'ti o'simligining balandligi 30-60 sm.ga yetadi. Poyasi tik o'sadi, shoxlangan, barglari tuxumsimon, asosan dumaloq. Gullari xalqasimon joylashgan. Guljisi oq. Daraxtlar tagida, soya-salqin yerlarda o'sadi. Dorivor va efir moyli o'simlik.[4]. Uning ildizpoyasi kuchli shoxlangan bo'ladi. Poyasi shoxlangan, 4 qirrali, kalta tuklar bilan qoplangan yoki tuksiz. Barglari tukli, poyada qarama-qarshi joylashgan, bandli, shakli yumaloq-romb shaklida bo'lib, chetlari arrasimon qirqilgan. Gullari 6-12 tadan soxta gulqo'rg'onda yig'ilgan. Mevasi yirik bo'lib, tuxumsimon 4 yong'oqchali shaklda qora-yaltiroq rangda bo'ladi. 1000 dona urug' og'irligi o'rtacha 0,62 gr.ni tashkil etadi. Urug' unuvchanligi 2-3 yilni tashkil etadi. O'simlik iyun-avgust oylarida gullaydi, avgust-sentyabr oylarida mevalari pishib yetiladi.[2]

Kimyoviy tarkibi. Yer ustki qismi tarkibida 0,01-0,33% efir moyi, S vitamini, karotin, fenilkarbon kislotalar (kofe, xlorogen, rozmarin, ferul, protokatex va boshqalar), triterpenlar, flavonoidlar (lyuteolin-7-glikozid va boshqalar), 5-10% oshlovchi va boshqa moddalar, urug'ida 20-27% yog' bor. Limono'tning efir moyi geraniol, linalool, nerol, farnezol va ulami sirka kislotasi bilan birikmasi, limonen, pulegol, geranal, neral va boshqa terpenlardan tashkil topgan.[1,7] Limono't dorivor preparatlari Ibn Sino aytishicha yurakni mustahkamlaydi va unga yordam beradi, shuningdek, traxoma, xiqichoq tutish, og'izdan yomon hid kelishi va boshqa kasalliklarni davolaydi. Xalq tabobatida limono't bilan nevroz, bronxial astma, ayollarni toksikoz, klimaks, yurak urishini buzilishi va boshqa kasalliklar davolanadi. Limono't damlamasi klinik sharoitida sinovlardan o'tgan va uni tibbiyot

amaliyotida tinchlantiruvchi va qon bosimini pasaytiruvchi vosita sifatida qo ‘Ilashga 0‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsat etilgan.[1]

Yetishtirish texnologiyasi. Limon o‘ti namlik ko‘p miqdorda bo‘lgan o‘rmon o‘tloqzorlarida, kengliklarida, qiyaliklarning soya joylarida, shag‘alli va mayda toshli tuproqlarda o‘sadi. Boshqa ilmiy manbalarda keltirilishicha, limon o‘ti shag‘alli va qumoq, chirindiga boy, og‘ir ishqorli tuproqlarda o‘smaydi.[2] Dorivor limono‘t o‘simligini O‘zbekistonning barcha tuproq iqlim sharoitida ekib o‘stirish mumkin. O‘simlikdan yuqori hosil yig‘ib olish uchun unga sho‘rlanmagan, mexanik tarkibi o‘rtacha, unumdor, dukkakli va g‘allasimon ekinlardan bo‘shagan yerkarni tanlash tavsiya etiladi. Dorivor limono‘tni bir dalada 5 yilgacha saqlab hosil olish mumkin. O‘simlik ekiladigan yerkarni kuzda 25-28 sm chuqurlikda sifatli qilib haydaladi. Haydash oldidan gektar hisobiga 20-30 tonnadan chirigan mahalliy go‘ng va 50 kg dan fosfor o‘g‘iti bilan oziqlantiriladi[3,9]. Ekish oldidan yerkarni tekislash, bir yillik va ko‘p yillik begona o‘tlar urug‘ini kamaytirish maqsadida uzunasiga va ko‘ndalangiga diskali borona bilan 6-8 sm chuqurlikda yumshatiladi va molalash lozim bo‘ladi. Limono‘t yorug‘sevar, namsevar va ko‘pyillik o‘simlik bo‘lganligi uchun urug‘idan yoki shingillarini bo‘lib ekish yo‘li bilan ko‘paytiriladi. Limono‘tni mart oyining oxiri yoki aprel oyining boshlarida tuproq harorati 12-15°C bo‘lganda ekiladi. Urug‘larni sabzavot ekadigan seyalkalarda 2-3 sm chuqurlikda ekiladi. Urug‘lar tuproqqa bir tekis tushishi uchun donador superfosfat bilan aralashtirib ekiladi. Gektariga 6 kg urug‘ sarflanadi. Agar tuproqda nam etarli bo‘lmasa urug‘larni unib chiqishi uchun sug‘orish jo‘yak!ari tortilib tezlik bilan sug‘oriladi. Urug‘lar ekilgandan keyin maysalar 10-12 kunda unib chiqadi. O‘simlikda 3-4 ta chin barg hosil bo‘lganda qator oralari yum shatiladi va 20-25 sm oralig‘ida 2-3 tadan o‘simlik qoldirib yagana qilinadi[7]. Dorivor limono‘tni shonalash davrida gektar hisobiga 30 kg dan azot va 20 kg dan kaliy o‘g‘iti bilan oziqlantiriladi. Vegetatsiya oxirigacha o‘simlik 9-10 marta sug‘oriladi. Har 3-4 marta sug‘orilgandan keyin, o‘simlik oralari kultivatsiya qilinadi va begona o‘tlardan tozalanadi. Limono‘t iyun-avgust oyida gullaydi, mevalari iyul-avgustda etiladi. Uning xom-ashyolari (er ustki qismi) iyul-avgust oylarida o‘rib olingandan keyin azotli, fosforli va kaliyli o‘g‘itlar bilan oziqlantiriladi va sug‘oriladi[8,9] Limono‘tning xom-ashyosi juda nozik bo‘lganligi uchun tezlik bilan quritilmasa sifati buziladi. Ikkinchchi yili erta bahorda oralari yumshatiladi va begona o‘tlardan tozalanib vegetatsiya davomida gektar hisobiga 70 kg azot, 50 kg fosfor, va 30 kg kaliy o‘g‘iti bilan oziqlantiriladi hamda 7-8 marta sug‘oriladi. Dorivor limono‘t ekilgan maydonlarning gektaridan 1tonnagacha barg yig‘ib olish mumkin [1,5]. Makedoniyalik tadqiqotchilarining aytishiga ko‘ra limono‘tda eng yaxshi natijalar nam, lekin yaxshi quritilgan pH 4,5 dan 7,6 gacha bo‘lgan sharoitda o‘stirilganda olinadi. U boshqa o‘tlarga qaraganda qisman soyaga va nam tuproqlarga chidamli, lekin botqoq yoki juda quruq sharoitda o‘smaydi. Gul paydo bo‘lishidan oldin va gullah bosqichlarida yig‘ish

efir moyining eng yuqori hosilini olishning eng yaxshi bosqichi ekanligini aniqlashgan.[3,6]

Xulosa: Inson va hayvonlar organizmida ro'y beradigan turli kasallikkarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar salmoqli o'rin tutadi. Shu bilan birqalikda asosiy maqsad dorivor limono't ham yuqorida keltirilgan, nevroz, bronxial astma, ayollarni toksikoz, klimaks, yurak urishini buzilishi kabi kasallikkarni tabiiy yo'l bilan davosini topishi uchun tabiiy mahsulotdan foydalanish va bu yetishtirish texnologiyasini aholi orasiga tadbiq etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'.Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi" Toshkent, 2020[1]
2. A.T.Turdialiyev, M.A.Axmадjonova, F.B.Sayramov "dorivor limono't o'simligining morfologiyasi, yetishtirish texnoligiyasi va dorivorlik xususiyati" Ijodkor o'qtuvchi jurnali. 2023 № 29 S 482-484[2]
3. L.Mihajlov, V.Ilieva, .N.Markova, V.Zlatkovski "Organic Cultivation of Lemon Ballm (*Melissa officinalis*) in Macedonia". Jurnal of Agricultural Scicnec and technology B3 (2013) 769-775[3]
4. A.Axmidov, M.Nabiyliev, T.Odilov "O'zbekiston o'simliklari aniqlagichi" Toshkent 1987[4]
5. E.T.Axmedov, E.T.Berdiyev "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi" Toshkent 2017[5]
6. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov "Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan Ridge, Uzbekistan". Biodiversitas ISSN: 1412-033X. Volume 24, Number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722.Pages: 1621-1628 DOI:10.13057/biodiv/d240334[6]
7. Mamatkulova I.E."Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o'rganish". Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года[7]
8. Mamatkulova I.E., Abduraimov O.S., Narxadjayeva A., Maxmudov A.V. "O'zbekiston florasidagi madaniy o'simliklar yovvoyi ajdodlarining ozuqabop t
9. Mamatkulova I.E., Abduraimov O.S., Maxmudov A.V., Erdonov Sh. "Turkiston tog' tizmasida tarqalgan Elwendia Boiss. (Apiaceae) turkumi turlari" Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2021. №6. 10-14 B. [9]

a

r

i

